

PEDAGOG KADRLARNING KASBIY KOMPETENTSIYASINI RIVOJLANTIRISH MASALALARI

<https://doi.org/10.5281/zenodo.18091043>

Xamalova Feruza Yunusovna

Farg'ona viloyat Pedagogik mahorat markazi katta o'qituvchisi

Annotatsiya

Ushbu maqolada bugungi kun o'qituvchilarining kasbiy bilim va mahoratlari, kasbiy kompetensiyasini rivojlantirishga e'tibor qaratilgan, xulosa va tavsiyalar berilgan.

Аннотация

В данной статье уделено внимание профессиональным способностям преподавателей, своеобразию и специфике качества преподавания, а также даны соответствующие выводы и предложения.

Annotation

In this article teacher` professional knowledge and skills, characteristic features of enhancing have been paid attention on. It also includes conclusion and recommendation.

Davlatimiz rahbari prezidentlik faoliyatining dastlabki kunlaridan boshlab yurtimizda innovatsion va kreativ fikrlaydigan zamonaviy kadrlar tayyorlash, yoshlarni vatanparvarlik ruhida, yuksak ma'naviyat egalari etib tarbiyalash, shu maqsadda ta'lim tizimini takomillashtirish masalalariga alohida e'tibor qaratib kelmoqda.

Mamlakatimizda ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan islohotlarning muvaffaqiyati bevosita o'qituvchining kasbiy mahorati va kompetensiyasiga bog'liq. Barcha sohalarda bo'lganidek, kasbiy mahorat ham o'qituvchida yillar davomida amaliy hamda nazariy jihatdan shakllanadi va takomillashadi. SHuni alohida e'tiborga olish kerakki, o'qituvchining kasbiy mahorati, amaliy va uslubiy tajribalarga ega bo'lishi uchun asosiy zamin oliy ta'lim muassasasida yaratiladi, pedagogik faoliyat davomida rivojlanib boradi. O'qituvchining kasbiy mahorati o'ta murakkab xususiyatga ega bo'lgan jarayon hisoblanadi.

Fan-texnika taraqqiy etib, jamiyat axborotlarga tobora boyib borayotgan, fan olamidagi yangiliklar, psixologiya, pedagogika, metodika fanlari rivojlanayotgan bir davrda hozirgi zamon o'qituvchisidan o'z ustida tinmay ishlashni, malakasini

muntazam oshirib borishi, ijodkor va kompetensiyaga ega bo'lishi talab qilinadi. Hozirgi zamon o'qituvchisi zamonaviy bilimlarga ega, mafkura ishlarining faol qatnashchisi, o'z fanining fidoyisi va bu fanni, ilmiy xaqiqatni yosh avlodga san'atkorona o'rgatadigan, jamiyatning ma'naviy talablarini anglatadigan bo'lishi kerak. SHu sababdan uning kasb mahoratini, umumiy bilim saviyasini uzluksiz takomillashtirish uchun kerakli sharoit yaratish talab etiladi.

Pedagogik jarayonlarni tashkil etish, boshqarish, sifat va samaradorligini barqaror rivojlantirishda o'qituvchilarning faoliyati samaradorligi asosan ularning pedagogik jarayonlari va ularni tashkil etish va boshqarish yo'nalishidagi tushunchalari, bilimi, ko'nikma va malakalari darajasiga hamda ularning shaxsiy xususiyatlari va kasbiy amaliyotga ega bo'lgan shaxsiy sifatleri shuningdek qobiliyatlari, mahorati va kasbiy tajribasiga bog'liq bo'ladi. Chunki o'qituvchi shaxsi pedagogik jarayonlarini tashkil etish, boshqarish, sifat va samaradorligini oshirish hamda o'quvchilar faoliyatini muvofiqlashtirishga boshqaruvchi sifatida muhim ahamiyat kasb etadi. SHunday ekan, o'qituvchi pedagogik jarayonlarni ham boshqaruvchisi, ham ishtirokchisi sifatida tegishli ma'lumotga, kasbiy tayyorgarlikka va yuksak axloqiy fazilatlarga ega bo'lish zaruriyati bejiz belgilanmagan.

O'qituvchining kasbiy kompetentligi – bu pedagogning o'z kasbiy faoliyatini samarali, mustaqil va mas'uliyat bilan bajara olishini ta'minlaydigan bilim, ko'nikma, malaka, tajriba va shaxsiy fazilatlar majmuidir.

O'qituvchining kasbiy kompetentligi tarkibi:

1.Fanga oid(predmet) kompetentlik

- o'qitayotgan fanini chuqur bilish.

2. Metodik kompetentlik

-zamonaviy o'qitish usullari va texnologiyalarini qo'llay olish.

3.Psixologik-pedagogik kompetentlik

- o'quvchilar yosh va individual xususiyatlarini hisobga olish.

4.Kommunikativ kompetentlik

- ravon nutq, samarali muloqot, noverbal vositalardan foydalanish.

5.Axborot-kommunikatsion kompetentlik(AKT)

-raqamli texnologiyalar, multimediya va onlayn platformalardan foydalanish.

6. Ijtimoiy va axloqiy kompetentlik

-pedagogik etika, jamoada ishlash, mas'uliyat.

7. Kreativ va innovatsion kompetentlik

-yangicha yondashuv, innovatsion g'oyalarni joriy etish.

8.Rekleksiv kompetentlik

-o'z faoliyatini tahlil qilish va takomillashtirish.

O'qituvchining kasbiy kompetentligi – bu faqat bilim emas, balki shaxsiy madaniyat, pedagogic mahorat va doimiy o'z-o'zini rivojlantirishdir.

Quyidagilar o'qituvchi kompetentligi va faoliyatiga ta'sir etadi:

- o'quvchilar talabining o'sishi;
- iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy sharoitlarning o'zgarishi;
- zamonaviy texnologiyalarni takomillashuvi;
- jamiyat ehtiyoji hamda ta'limga talabning o'sishi;
- KTMD asosida o'qituvchi sub'ekti rolining o'zgarishi;
- DTS va o'quv dasturlarini optimallashtirilishi;
- Ta'lim sohasida xalqaro tajribalar va qiyosiy tahlil natijalari;

Demak, kompetentlik ta'lim muassasasi o'qituvchilarining ma'naviy dunyoqarashi, psixologik-pedagogik va tashkiliy texnologik salohiyati, ya'ni uning kasbiy imkoniyatlari salohiyatini ifodalaydi. Mazkur salohiyatni ta'lim muassasasi o'qituvchilari pedagogik faoliyati jarayonini o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda, ular tomonidan tashkil etilayotgan pedagogik jarayonlarning holati va samaradorligi orqali aniqlash mumkin bo'ladi.

O'qituvchiga quyidagi yangi ijtimoiy ko'nikmalar muhim:

- o'z fikrini ifodalay olish;
- muloqotga kirisha olish;
- o'z-o'zini takomillashtirish;
- vaziyatni baholay olish va muammolarni yecha olish ko'nikmasi;
- tashabbuskorlik, ijodiy yondoshuv va uddaburonlik;
- boshqaruvchanlik ko'nikmalari;
- bag'rikenglik;
- o'z-o'zini baholay olish ko'nikmasi.

O'qituvchining kasbiy kompetentligi ularning o'ziga va o'z ishiga nisbatan talabchanligi, o'z ishining ustasi bo'lishi, o'z sohasining sirlarini har tomonlama chuqur bilishi, o'z-o'zini rivojlantiruvchi hamda o'z qobiliyati va imkoniyatlarini to'la ishga sola bilishi, ta'lim muassasasi, oila va mahalla hamkorligini yo'lga qo'ya olishi darajalari bilan aniqlanadi.

Kasbiy kompetensiyaning rivojlanish bosqichlari:

1. O'z-o'zini tahlil qilish va zarur narsalarni anglash;
2. O'zini rivojlantirishni rejalashtirish maqsad, vazifa belgilash;
3. O'zini namoyon etish va kamchiliklarini tuzatish.

Xulosa qilib aytganda, pedagogik jarayonlarni tashkil etish va boshqarishda kompetentlik o'qituvchining individual qobiliyatlari va malakasi, o'zini o'zi

rivojlantirishga va uzluksiz mustaqil ta'lim olishga bo'lgan moyilligi, intilishlari, shuningdek zamonaviy talablar asosida tashkil etilgan pedagogik jarayonlarning holati va samaradorligi orqali aniqlanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

- 1.X.A. Abdullaev, F.Yu. Xamalova. Yosh o'qituvchilar kasbiy bilim va maxoratlarini oshirishning ijtimoiy-pedagogik muammolari. F. 2008
2. Pedagogik ustaxona" yosh o'qituvchilarga metodik yordam. "Ma'rifat" 2007 yil 11 iyul.
3. Ishmuhamedov R., Abduqodirov A., Pardaev A. Ta'limda innovatsion texnologiyalar. Toshkent 2008.
4. Fayzullaeva n. Pedagogik bilimlar – o'qituvchi kasbiy mahoratining nazariy asosi // uzluksiz ta'lim j. – T.: 2006. 6-son.
5. Azizxo'jaeva N.N. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat / – T.: "O'zbekiston yozuvchilar uyushmasi adabiyot jamg'armasi" nashriyoti. 2006.